

G'AZNAVIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI

Sultonova Farida O'lmas qizi

TDSHU 2-kurs magistratura talabasi,

Tarix (mamlakatlari va mintaqalar) yo'nalishi.

fsultonova3199@gmail.com tel: +998902967399

Annotatsiya: *G'aznaviylar davlati X asrda Somoniylar tarkibidan ajralib chiqib mustaqil davlat sifatida shakllandi. Ushbu davrda arab va fors tilidagi ko'plab tarixiy asarlar yozilgan. G'aznaviylar davri tarixini boshqa davlatlardan farqli ravishda hind tilida yozilgan manbalar orqali ham o'rganish mumkin. Bu Mahmud G'aznaviy va o'g'li Ma'sudning Hindistonga qilgan harbiy safarlari bilan izohlanadi. Shuningdek, bu davr tarixini yoritib beruvchi manbalar faqat g'aznaviylar bilan cheklanmasdan, o'sha davrdagi boshqa davlatlar, xususan, somoniylar, saljuqiylar, qoraxoniylar tarixini ham yoritib beradi.*

Kalit so'zlar: *Mahmud G'aznaviy, Utbiy, Nizomulmulk, Gardiziy, Rashididdin Fazlulloh, Hamidulloh Qazviniiy.*

Abstract: *The state of the Ghaznavids was formed as an independent state after separating from the Somanids in the 10th century. Many historical works in Arabic and Persian were written during this period. Unlike other countries, the history of the Ghaznavid period can be studied through sources written in Hindi. This is explained by the military trips of Mahmud Ghaznavi and his son Masud to India. Also, the sources that shed light on the history of this period are not limited to the Ghaznavids, but also shed light on the history of other states of that period, in particular, the Samanids, the Seljuks, and the Karakhanids.*

Keywords: *Mahmoud Ghaznavi, Utbi, Nizamulmulk, Gardizi, Rashididdin Fazlullah, Hamidullah Kazvini.*

G'aznaviylar X asr oxiridan XII asr oxirigacha hozirgi Afg'onistonning katta qismini, Pokiston, Eron va O'rta Osiyoning bir qismida hukmronlik qilgan musulmonlar sulolasi edi. Bu sulolaga Somoniylar saltanatining sobiq quli bo'lgan Sabuqtegin asos solgan va u 977 yilda G'aznani bosib olganida hokimiyat tepasiga ko'tarilgan. Bu sulola G'azna shahri nomi bilan G'aznaviylar imperiyasi deb ham yuritiladi.

G'aznaviylar o'z hukmronligi davrida samarali markazlashgan boshqaruvni o'rnatdilar va madaniyat, maorif va iqtisod sohalarida ko'plab yangicha islohotlarni amalga oshirdilar. G'aznaviylar harbiy qudrati va Hindiston yarimorolidagi hind



hukmdorlariga qarshi yurishlari bilan mashhur edilar. Mahmud G‘aznaviy 997-1030 yillar oralig‘ida Hindistonga to‘qqiz marta bostirib kirdi va bu G‘aznaviylarga katta boylik, o‘lja va shuhrat keltirdi. Aynan shu davrda hind-fors madaniyati butun Hindiston bo‘ylab tarqaldi. G‘aznaviylar davri tarixini fors, hind, numizmatik manbalar va arxetektura inshootlari orqali o‘rganish mumkin. Xususan fors tilida g‘aznaviylar tarixi bayon etilgan asarlar quyidagilar:

Nizomulmulk “Siyosatnoma” – Siyar al-mulk – Podshohlar hayoti nomi bilan mashhur asar. Fors tilida yozilgan va XI asrda yaratilgan “Siyosatnoma” Malikshohning vazirlari tomonidan hukumat, ma‘muriyat va xalq boshiga tushgan musibatlariga oid kitoblar tayyorlash haqidagi iltimosiga binoan yaratilgan. Nizom al-Mulk tuzgan risola “Millat konstitutsiyasi” sifatida qabul qilingan. Hammasi bo‘lib u din, siyosat va boshqa turli masalalariga oid 50 bobdan iborat kitob tuzgan. Siyosatnomada xususan, G‘aznaviylar davri davlat boshqaruvi, qozilik ishlari, harbiy sohasi haqida muhim ma‘lumotlar keltirilib o‘tilgan.

Abu Ja‘far Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor al-Utbiy (Ray shahrida hijriy 961-62 yili dunyoga kelib, 1022-1040 yy. oralig‘ida vafot etgan) qalamiga mansub “Tarixi Yaminiy” asari g‘aznaviylar amiri Sabuqtegin va Sulton Mahmud hukmronlik qilgan yillarda Afg‘oniston, Xuroson, Xorazm va qisman Movarounnahrning 975-1021 yillardagi tarixini o‘z ichiga olgan. Abu Nasr Muhammad al-Utbiyning ona tarafdan tog‘alari Abu Ja‘far va Abulhusayn Abdulloh ibn Ahmad al-Utbiy somoniylardan Abdulmalik ibn Nuh (954-961), Abu Solih Mansur (961-976) va Abulqosim Nuh II ibn Mansur (976-997)ning vaziri bo‘lib xizmat qilishgan. Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor al-Utbiy ham somoniylar, keyinchalik g‘aznaviylar (977-1186)ning saroyida xizmat qilgan.

Asar dastlab arab tilida yozilgan, keyin dunyoning turli tillariga tarjima qilingan. Jumladan, hijriy 582 yilda Abu Sharaf Nosih ibn Jafar al-Jarbadhaqoniy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan, ya‘ni hijriy 1186 yilga to‘g‘ri keladi, aynan g‘aznaviylar sulolasi taxtdan ayrilib, uning o‘rniga g‘urlar sulolasi kelgan davr. Jarbadhaqoniy tarjimasining toshbosma nashri 1857/1858 yillarda Tehronda nashr etilgan. Ushbu tarjimadan foydalanib, ingliz tarixchisi Reynolds Jeyms “Tarix-i Yamini”ni ingliz tiliga tarjima qilgan va 1858 yilda Londonda nashr etilgan.¹¹ Asar an‘anaviy maqtovlar bilan boshlanib, kirish qismidan so‘ng hijriy 365/975 yillarda somoniylar davlatida sodir bo‘lgan voqealar haqida so‘z boradi. Shu bilan birga, g‘aznaviylar davlatining tashkil topishi, siyosiy faoliyati haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Amir Nosiriddin, Sobuqtegin, Yamin ad-davla Mahmud G‘aznaviy, Sulton Mas‘ud kabi mashhur

¹¹ Reynolds J. Al-Utbi. The Kitab-I-Yamini: Historical Memoirs Of The Amir Sabaktagin And The Sultan Mahmud Of Ghazna. Kessinger Publishing, 2007. P. 552



hukmdorlar shuningdek, Amir Ismoil Somoniy, Amir Abu al-Qosim Nuh, Abu al-Hasan Simjur, qoraxoniy Bug'roxon kabi boshqa ko'plab mashhur hukmdorlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.¹² Utbiyning ushbu asari Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan g'aznaviylar va somoniylar sulolasi tarixini yoritib bergan muhim manbalardan biri hisoblanadi. G'aznaviylar davlatining eng muhim manbalaridan biri Abul Fazl Muhammad ibn al-Hasanning "Tarix-i Bayhaqiy" asaridir. Bayhaqiy 386\996-yilda Nishopur yaqinidagi Bayhaq qasabasining Harisobod qishlog'ida tug'ilgan. Bayhaqiy Xurosonda islom qonuni saboqlarini oladi. Keyinchalik, g'aznaviylar saroyidagi Devon ar-rasoilga kotib qilib olib ketiladi.¹³ "Tarixi Bayhaqiy" Mas'ud G'aznaviy davrining ko'plab tarixiy voqealaridan tanlab olingan hikoyadir. Bayhaqiy o'zining avvalgi tarix kitoblaridan farqli yo'l tutganini, uning asari g'oliblar va mag'lublar haqida kitob bo'lmaganligini, balki o'zi ko'rgan va boshidan kechirgan voqealarni batafsil tasvirlashga harakat qilganini ta'kidlaydi. Shu jihatdan asarni memuar sifatida ham baholash mumkin. Asarni o'qishga qulay bo'lishi uchun tarixiy latifalar, arab va fors she'rlarini o'z ichiga olgan va Bayhaqiy hech kimga maqto'v iboralarini ishlatmagan, O'zi so'zlagan mavzu va odamlarga nisbatan realistik va betaraf bo'lishga harakat qilgan. Bayhaqiyning somoniylar, safforiylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, g'aznaviylar tarixi, Sulton Ma'sudning Hindistonga ketishigacha va Buyuk Saljuqiylarning ilk davrlari haqida bergan ma'lumotlari juda muhimdir.

Bulardan tashqari, asarda Eron adabiyoti, geografiyasi, ijtimoiy tuzilishi va urf-odatlariga oid muhim qaydlar mavjud. G'aznaviylar saroyidagi muhim vazifalari tufayli davlat boshqaruvi va tashkiloti, saroy hayoti va fitnalarida katta bilim va tajribaga ega bo'lgan Bayhaqiy xorijiy davlatlarga yoziladigan maktublarda qo'llanilgan iboralarni bayon qilgan. G'aznaviylar saroyida sodir bo'layotgan voqealarni xolislik bilan yoritib bergan. Arab tilining rasmiy til sifatida qo'llanilgan, arab madaniyati va adabiyoti hukmron bo'lgan davrda fors tilida yozilgan "Tarix-i Bayhaqiy" asarida arab tilining ta'siri yaqqol ko'rinadi. Arabcha she'rlar, maqollar, so'z va iboralardan tashqari, ba'zi jumla tuzilmalari ham arab tilining grammatik xususiyatlarini o'z ichiga oladi.¹⁴ "Tarix-i Bayhaqiy" asari g'aznaviylar tarixini yoritishda bugungi kunga qadar muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

¹² Meisami J.S. Persian Historiography to the End of the Twelfth Century. Edinburgh, 1999. P. 202

¹³ Gülseri Okudan, Afganistan ve Hindistan Fatih Sultan Gazneli Mahmûd, Iksad Publications, Ankara / Turkey, 2020, s 4

¹⁴ <https://islamansiklopedisi.org.tr/tarih-i-beyhaki>



O'z asarlarida tarix va geografiya bilimlarini birga taqdim etgan Gardiziy bugungi kunda Afg'oniston hududida joylashgan Gardizda tug'ilgan. Uning hayoti va qayerda vafot etgani haqida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. U o'z asarini G'aznaviylar sultoni Zaynul-milla Abu Mansur Abdurrashid davrida yozgan. Sulton Mahmud davridagi istilolar va voqealarni o'zi ko'rib, kitobida bayon qilgan. Xuroson tarixi, jumladan, somoniylar davri uchun ham muhim manbalardan biri. Asardan 955-975 yillar oralig'ida Xuroson haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.¹⁵

Gardiziyning "Zayn al-axbor" nomli asarida Eron hukmdorlari va hazrati payg'ambar davrlari haqida ma'lumot topish mumkin. Bundan tashqari, uning yunon ilmi, turli qabilalarning xronologiyasi, diniy bayramlar marosimlarini o'z ichiga olgan asari qimmatli manba hisoblanadi. Hindistonga tegishli alohida bobida Hindiston geografiyasi, hindlarning bayramlari va an'analari haqida ma'lumotlar bor. Asarda g'aznaviylar davlatining asoschisi Alp Tegin bilan somoniy vaziri Be'lamiy o'rtasidagi yozishmalar, Alp Teginning G'azna shahrini bosib olishi bilan g'aznaviylar davlatiga qanday asos solganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Hind yurishlari, Seiston yurishlari, G'o'r yurishlari, Xorazm yurishlari va ularning Sulton Mahmud davrida Turk xoqonligi va Somoniylar davlati bilan olib borgan kurashlari haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.¹⁶

Asarda Seistonda safforiylar, somoniylar va g'aznaviylar hukmronligi haqida ma'lumotlar berilgan. Eng qadimiy fors yozma manbalaridan biri bo'lgan "Zayn-ul axbor" asarida qadimgi Eron tarixi, payg'ambarlar hayoti, Turkiston geografiyasi, turkiylar va hindlar haqidagi ma'lumotlar yozilgan. Gardiziy asarida madaniy va tarixiy jarayonlar haqida muhim ma'lumotlar bergan. Uning Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropadagi turkiy xalqlar haqida bergan ma'lumotlari juda qimmatlidir. Gardiziy o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy holatini o'rganish nuqtayi nazaridan ham qimmatli ma'lumotlar beradi.¹⁷

Mahmud G'aznaviy va uning davri haqida yozilgan asarlardan yana biri Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning "Jomi ut-tavorix" nomli asaridir. Taxminlarga ko'ra, muallif Hamadonda 645-646/1247-1250 yillarda tug'ilgan. U tibbiyot bilan shug'ullanadigan oilaning o'g'li bo'lgan. Abakaxon (1265-1282) xizmatida tabib bo'lib ishlagan muallif G'ozonxon (694-703\1295\1304) davrida vazir etib tayinlangan. Rashididdin Fazlulloh G'azonxon vafotidan keyin diniy va ilmiy

¹⁵ Bilgin. A. (2002). "İlk Müslüman Türk Devletlerinde Kültür Medeniyet/ Gazneliler", İSAM Dergisi, XLIII, Ankara, s. 625-629.

¹⁶ Bosworth. C. E. (2012). "Ghaznavids", Colombia, S.578-583.

¹⁷ Gülseri Okudan, Afganistan ve Hindistan Fatihi Sultan Gazneli Mahmûd, İksad Publications, Ankara / Turkey, 2020, s 11



masalalarga e'tibor qaratdi.¹⁸ Asarning G'aznaviylar haqida ma'lumot beruvchi IV juzida Sulton Mahmud G'aznaviy, somoniylar va uning atrofidagi kichik davlatlar haqida ma'lumot keltirilgan. Unda g'aznaviylar davlatining tashkil etilishi, uning somoniylar va buvayhiylar bilan aloqalari haqida ma'lumotlar bor. "Jomi ut-tavorix" umumiy tarixiy asar sifatida qabul qilingan bo'lib, ba'zi qismlari fors tilida, ba'zi qismlari esa mo'g'ul tilida yozilgan. Asar G'azonxonning iltimosiga binoan yozilgan. U islom olamida va undan tashqarida ko'plab siyosiy-ijtimoiy masalalar uchun ma'lumotnoma hisoblanadi. Asarda payg'ambarlar tarixi, Qadimgi Eron tarixi, hazrati payg'ambar Muhammad va xalifalar tarixi, Turon va Eron hukmdorlari tarixi, olimlar, shoirlar va Qazvin tarixi, Mahmud G'aznaviy, Sulton Bahromshoh va G'aznaviylar qo'shini haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.¹⁹

Ushbu davr tarixini yoritgan yana bir asar "Taboqot-i Nosiriy" (hijriy 658-657 yillarda yozilgan) hisoblanadi. Qozi Munhojiddin Usmon Juzjoni tomonidan 23 ta qismga bo'lingan va g'ulom sultonlaridan biri Nasriddin Mahmud nomiga yozilgan. Bu asar umumiy tarixni o'z ichiga oladi xususan, Hindiston va Pokiston mintaqasidagi g'aznaviylar va g'uriylar (658-657 yillardagi) tarixi va mo'g'ullar istilosi tarixini bayon etgan.

"Taboqoti Nosiriy" yozilish uslubi jihatdan fors tilida yozilgan asarlarning durdonasi hisoblanadi. Garchi asar Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoy" asari bilan bir vaqtda yozilgan bo'lsa-da, uning yozuv uslubi "Tarixi Jahonkushoy" va "Toj al-maosir"dan farq qiladi. Shuningdek, boshqa davrlarda yozilgan asarlar xususan, "Tarix-i Yaminiy" (603-602) va "Rohat as-sudur" (599) dan uslubining soddaligi va barqarorligi bilan ajralib turadi

G'azna tarixi haqida ma'lumot bergan muhim olimlardan Hamidulloh Qazviniy Qazvin shahrida tug'ilgan. Uning oilasi arab bo'lgan va u tug'ilishidan ancha oldin Qazvinga joylashgan. Oilasi Abbosiylar xalifasi Mu'tasim Billah (833-842\1429-1430) davridan Sulton Mahmud G'aznaviyga qadar Qazvin hukmronligini ushlab turgan. U 711\1311-yillarda Qazvin, Tabriz, Bag'dod, Isfaxon, Sultoniya kabi shaharlarda bo'lgan. Olimlar, shoirlar va yozuvchilarning suhbatlarida ishtirok etgan Qazviniy, Rashiduddin Fazlullohning majlislarida qatnashdi. Muallif 730/1330 yilda vazir G'iyosiddin Muhammadga topshirgan "Tarix-i Guzida" nomli Fors umumiy tarixiga bag'ishlangan asar yozadi. "Tarix-i Guzida", dunyo yaratilganidan boshlab payg'ambarlar tarixi, Eron sultonlari, hazrati payg'ambar Muhammad hayoti, Abbosiylar davrining oxirigacha bo'lgan davri, g'aznaviylar, saljuqiylar,

¹⁸ Özgüdenli. O. G. (2008). "Reşîdüddin Fazlullâh-ı Hemedânî", DİA, TDV Yayınları, İstanbul, XXXV, s. 19-2

¹⁹ Gülseri Okudan, Afganistan ve Hindistan Fatih Sultan Gazneli Mahmûd, Iksad Publications, Ankara / Turkey, 2020, s 13



xorazmshohlar, qoraxoniylar va mo'g'ullar kabi ko'plab davlatlar va ularning tarixi haqida muhim manba hisoblanadi.²⁰

Ushbu manbalar yordamida biz G'aznaviylar davlatiga oid muhim tarixiy ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Asar nafaqat g'aznaviylarga, balki o'sha davrda faoliyat yuritgan sulolalar, islom tarixi, madaniy-ijtimoiy hayot, iqtisodiy va siyosiy ahvol haqida ma'lumot beradi. G'aznaviylar davlati tarixini manbalar asosida o'rganib chiqqan olimlardan biri H.M.Elliot hisoblanadi. Uning Londonda 1869 yilda nashr etilgan "History of India by own historians" asarida Hindistonda faoliyat yuritgan musulmon sulolalari, xususan, g'aznaviylar sulolasi haqida ham ma'lumot berib o'tgan. U asarida Beruniyning "Hindiston tarixi", Utbiyning "Tarix-i Yaminiy", Bayhaqiyning "Tarix-i Sobuqtegin", Muhammad Ufiyning "Jomi ul-hikoyat", Hasan Nizomiy "Toj al-maosir", Ibn Asir "Komil ut-tavorix", Juvayniyning "Tarix-i Jahonkusho" asarlarini tahlil qilib, G'aznaviylar tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar berib o'tgan. G'aznaviylar haqidagi muhim ma'lumotlarni XI asr boshlariga oid ikkita yilnoma (biri fors va biri arab)dan olishimiz mumkin. Arabcha matni Abu Nasr al-Utbiy yozgan "Tarix-i Yaminiy" va forscha yilnoma Gardiziyning "Zaynul-axbor" asaridir.²¹

G'aznaviylar davri Afg'oniston tarixida muhim o'rin egallagan. Bu davrga oid muhim hujjatlar, asarlar, arab, fors, hind tillarida yozilgan. Boburiylar davrida Hindistonda fors tilida yozilgan umumiy tarixga oid aksariyat asarlarda ham g'aznaviylar davriga oid ma'lumotlar uchraydi. Bugungi kunga qadar o'sha davrda bitilgan yozma manbalar, me'moriy inshootlar, numizmatik materiallar o'z aktualligini yo'qotmagan va tadqiqot ishlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Reynolds J. Al-Utbi. The Kitab-I-Yamini: Historical Memoirs Of The Amir Sabaktagin And The Sultan Mahmud Of Ghazna. Kessinger Publishing, 2007
2. Meisami J.S. Persian Historiography to the End of the Twelfth Century. Edinburgh, 1999
3. Gülseri Okudan, Afganistan ve Hindistan Fatihi Sultan Gazneli Mahmûd, Iksad Publications, Ankara, Turkey, 2020
4. Bosworth. C. E. "Ghaznavids" , Colombia, 2012
5. علی اورسجی، تاریخ نویسی فارسی در هند و پاکستان، لاهور، پاکستان، ۱۹۸۵

²⁰ علی اورسجی، تاریخ نویسی فارسی در هند و پاکستان، لاهور، پاکستان، ۱۹۸۵، ۳۸

²¹ H.M.Elliot, History of India by its own historians, vol II, London, 1869, p-12



6. تاریخ نویسی فارسی در سند و پاکستان، آفتاب اصخر، لاخور، پاکستان، ۱۹۸۵

